

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



**«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»**

MAVZUSIDAGI XALQARO II MIY-AMALIY ANJUMAN



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida “Ingliz tili nazariy aspektlari”, “Ingliz tili va adabiyoti” hamda “Ingliz tili amaliyoti” kafedralari tomonidan “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Mas‘ul muharrir(lar):

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

Tahrir hay‘ati:

f.f.d.prof. D.A.Rustamov
f.f.d.prof. M.I.Umarxo‘djayev
PhD. dots. M.A.Qurbonov
f.f.d.prof. G‘.M.Xoshimov
f.f.d.prof. V.A.Vositov
PhD. dots. M.G‘.Xoshimov
p.f.n. prof. Sh.S.Alimov
PhD. G.M.Ibragimova
PhD. Q.Umrzakov
kafedra o‘qituvchisi N.Xamidov
kafedra o‘qituvchisi Z.No‘monova

Tahrir nashriyoti bo‘limi muharriri:

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag‘ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to‘plamdan respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil

alovati, qolaversa, insonning mavqei va mehnat faoliyati belgisi ekanligi bilan, ikkinchidan, ular uzluksiz tarzda aniq bir o'lkashunoslik foniga bog'liqligi, ya'ni ma'lum bir siyosiy kontekstga xos bo'lgan shaxsning ijtimoiy mavqeyini anglatishida, uchinchidan, ularning bevosita ijtimoiy omillar ta'siriga tortilishida ko'zga tashlanadi. [3,56]

A.D. Rayxshteyn tomonidan asos solingan son va sifat ko'rastakichlari qatori bo'yicha shakllantirilgan komponentlar tarkibini qiyoslash semantik jihatdan bir turli komponentli frazeologik birliklar tadqiqining muhim aspektidir. [4,65]

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar tarkibidagi ijtimoiy-kasbiy belgilariga ko'ra shaxs nomlanishi quyidagi jihatlar bo'yicha tavsiflash taklif qilinadi:

- 1) FB tarkibidagi shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasining umumiy soni;
- 2) leksik qatlamdagi shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli FB larning formal-stilistik muqobillashuvi;
- 3) Shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasining asliy leksik ma'nolariga tematik jihatdan tegishliligi;
- 4) Shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasining FB ning grammatik tarkibga doimiy qayd qilinganligi;
- 5) Shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasining frazeologik faolligi (Shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasining FB tarkibidan o'rin olish imkoniyatlari).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бабкин А.М. Русская фразеология, ее развитие и источники. —М.: Либроком. 2009.
2. Годфрай. Психология нима: 2 жилд —М.: 1992 й.
3. Маковский М.М. У истоков человеческого языка. —URSS.: 2009.
4. Якобсон П.М. Туйғулар психологияси. —М.: 1961 й.

BADIIY ADABIYOTLARDA DIN KONSEPTINING IFODALANILISHI

Nafisaxon Maxamatqulova

Andijon davlat chet tillari instituti

Lingvistika yo'nalishi magistranti

E-mail: nafisamahamatkulova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola konseptning mohiyati hamda "din" konseptining ifodalanilishi, badiiy adabiyotlarda qo'llanilishiga bag'ishlangan. Suningdek maqolada badiiy adabiyotlardan foydalanilgan holatda dinkonseptning lingvokulturologik jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: konsept, lingvokulturologiya, aqida, e'tiqod, madaniyatshunoslik, tilshunoslik.

Abstract: This article is devoted to the essence of the concept and the expression of the concept of "religion", its use in artistic literature. In this article, the linguistic and cultural aspects of the concept of religion are highlighted in the case of using fiction.

Key words: concept, linguoculturology, creed, faith, cultural studies, linguistics.

Mamlakatimizda keyingi yillar mobaynida o'zbek tilshunosligi taraqqiy qilib, takomillashib bormoqda. Boshqa fanlarning o'zaro integratsiyalashuvida tilshunoslik fanining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham asli falsafiy tushuncha hisoblangan konsept so'zi so'nggi paytda tilshunoslikning ham o'rganish obyekti sifatida ahamiyat berilmoqda. Konsept, "nikoh" konsepti tushunchalariga to'liq ta'rifiga izoh berishga, konseptual asosini yoritishga harakat qilamiz. Konsept zamonaviy tilshunoslikdagi lingvomadaniy sohaning birligi hisoblanadi, chunki u til, jamiyat va uning madaniyati to'g'risidagi bilimlarni aks ettiradi. Konseptlar tilda madaniyatni aks ettiradi va inson ongida olamning tasvirini shakllantiradi. Konsept tafakkurning mazmun birligi, tizimlashtirilgan bilimning birligi deb tushunish mumkin. Konsept – bu inson fikrlash jarayonida foydalanadigan mavhum birlik yoki ma'nodir.

Konseptning to'laqonli tavsifi va tasnifini uning ma'no va tushuncha bilan munosabatlarsiz tasavvur qilish qiyin. O'.Q.Yusupov tushuncha va ma'no munosabatlari borasidagi tilshunos olimlarning fikrlarini uch guruhga bo'ladi. Birinchi guruhga mansub tilshunoslar ma'no va tushunchani bir narsa, ma'no tilga, tushuncha tafakkur va mantiqqa xos atamalar deb hisoblaydilar.

Ikkinchi guruh vakillari V.A.Zveginsev tushuncha va ma'no bir-biridan tubdan farq qiluvchi xodisotlar ekanligini ta'kidlasalar, uchinchi guruh tilshunos olimlar, masalan, Gorodetskiy tushuncha ikki qutbli, ya'ni formal va mazmunli bo'lib so'z ma'nosi formal tushunchaga to'g'ri keladi degan fikrni ilgari suradilar. Aslida formal va mazmunli tushuncha to'g'risidagi konsepsiya S.D.Katsnelson tomonidan taklif etilgan bo'lib, unga ko'ra formal tushuncha predmetning boshqa predmetlardan ajratib turuvchi minimal belgilarini inson tilida aks etishidan iborat. Mazmunli tushuncha kognitiv jarayonda aniqlangan predmetning yangi va o'ziga xos belgilaridan iborat bo'ladi. Mana shu konsepsiyaga deyarli yaqin yana bir konsepsiya A.A.Potebnya tomonidan ilgari surilgan bo'lib, unda so'zning uzoq va yaqin ma'nolari farqlanadi. So'zning yaqin ma'nosini A.A.Potebnya umumxalq ma'no deb hisoblaydi. Muloqot jarayonida namoyon bo'lgan bu ma'no tufayli kommunikantlar bir birlarini hech qanday qiyinchiliklarsiz tushunadilar. Olimning fikriga ko'ra, uzoq ma'no individuallik kasb etadi. Yuqoridagilar asosida professor O'.Q.Yusupov quyidagi umumiy xulosalarga keladi: "Agar S.D. Katsnelson fikriga tayanilsa, konsept mazmunli va formal tushunchalar yig'indisiga teng bo'ladi, A.A.Potebnya fikridan kelib chiqilsa, unda so'zning yaqin va uzoq ma'nolari yig'indisi ostida konsept yotadi".

So'z ma'nolari inson ongidagi mavjud tushunchalarning muqobillari ekanligini e'tirof etgan holda O'.Q.Yusupov tushuncha – konsept munosabatlari borasida quyidagi e'tiborga loyiq fikrlarni bildiradi: Bugungi kunda konsept tushunchadan keng ekanligini barcha kognitivistlar tushunadilar. Agar tushuncha va uning tildagi muqobil bo'lgan so'z ma'nosi o'sha aytilayotgan predmetning yoki xodisaning boshqa predmet va xodisadan ajratuvchi eng ahamiyatli belgilarini aks ettirsa, konsept uning (predmet yoki xodisaning) ma'lum bo'lgan barcha belgilarini, shu jumladan, ikkinchi darajali belgilarini ham aks ettiradi. Shuning uchun konsept shaxsga, guruxga, millatga, xatto erkaklarga, ayollarga, yoshlarga va keksalarga taalluqli bo'lishi mumkin.

Yu.S.Stepanov, ma'no va tushunchani bir narsa deb qaralishi sabab bo'lgan omil, ya'ni ularning har ikkalasi ham umumlashtirish xususiyatiga ega ekanligi deb hisoblaydi. Uning fikricha, tushuncha (понятие) predmet yoki xodisalarning nisbatan muhimroq xususiyatlarini aks ettirsa, so'z ma'nosi insonlarning jamiyatdagi amaliyotida egallagan predmetlarning umumiy va muhim xususiyatlarini aks ettiradi. Shuning barobarida tilshunos ma'no va tushuncha o'zaro yaqin munosabatda bo'lishlariga qaramasdan, ularni bir toifa xodisalar deb hisoblash to'g'ri bo'lmasligini alohida ta'kidlaydi. Buning asosiy sababini ba'zi predmet va xodisalarning muhim xususiyatlari umumiy tarzda aks etgan tushunchalarni yaratilmaganida ko'radi.

Inson olamni tushunishi, anglab yetishi, olamni tasniflash usuli, insonlarni bilimlarini namoyish qilishi, bularning bari tilda ifodalanadi. Sababi, til borliqdagi bari unsurlarni, xoh yashirin, xoh ko'zga tashlanuvchi bo'lsin, barchasini ko'rsatib beruvchi, yuzaga chiqaruvchi yagona aloqa vositasidir. Til fikrlarni ifodalashning asosiy vositasi sifatida bilish jarayonini aks ettiradi²⁵.

So'ngi yillarda zamonaviy tilshunoslikda tadqiqotchilarning diqqat markazida inson, til va madaniyatning o'zaro ta'siri muammosi turadi. Har bir tilda o'ziga xos milliy va umuminsoniy xususiyatlarga ega bo'lgan voqelikni konsepsiyalashning o'ziga xos usuli mavjud. Shu jihatdan, «din» konsepti ham turli tizimli tillarda o'zining milliy-madaniy asoslanishiga ega.

Din konseptini badiiy adabiyotlar tahlilida ko'rib chiqishimiz mumkin. Din leksemasi bu bir katta daraxt deb olsak uning shoxlari sifatida unga tegishli bo'lgan yondosh so'zlarni tushunishimiz mumkin.

Din konseptining sinonimlari sifatida **e'tiqod** va **aqida** so'zlarini olishimiz mumkin.

E'tiqod — dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik iqtisodiy va ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga bo'lgan ishonch

E'tiqod — dunyoqarash shaxs, jamoa, guruh va jamiyat a'zolarini ma'lum bir g'oya, ta'limot, yoki dinga qat'iy ishonish asosida uni haq deb bilib, shu ta'limot to'g'risidagi tasavvur va bilimlarni tashkil qiladi. Inson shu g'oyani yoki dinni o'zining faoliyat dasturi deb hisoblaydi.

E'tiqod - ajratib turuvchi tur yoki toifaga bo'lishda qatnashadi. Har bir mavjudot o'z hududi maydonida boshqa hududdan farq etish uchun turli belgilarni shakllantirishadi. Misol tariqasida odamlarni umumiyashtirish xizmat ko'rsatishga uringan diniy e'tiqod: Odamlarni ezgulikga da'vat etuvchi Xristian e'tiqodi insoniylikga — mexribon, tushunishni biladigan, hamdard, tabiatni sevuvchi qalb egasi. Hudojo'ylik. Xristian e'tiqodi ya'ni Isus Xrista bilan bog'liq bo'lgani uchun Hudoga ishonish Xristos deyiladi. Xristianlar hochga qoqilgan Isus Xristning o'limida sodir bo'lgan zilzilada qirollik taxtiga ikkiga bo'lingandan so'ng ishonch uyg'onib sig'inadilar. Ma'lum vaqtga hayvonlar insoniylikga chorlagan Iso Masixning Hudoga ishonish davati boshqa turli dinlarda raqobatga aylanib odamlar

²⁵ Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jayev H., Raximjonov D. va boshqalar. Dinshunoslik: darslik / m as'ul m uharir N.Ibrohioyov. — Toshkent: M ehnat. 2004. — 294 b.

orasida dinlar yanada jiddiy tarzda niqoblar ko'rinishida "Troya oti" bo'lib xizmat qilishni boshladi. Isus Xrist yaxshi odamlar uchun Inson ko'zgusi xisoblanadi va shu sababli hoch ramzida dini ko'rsatiladi.

Ikkinchi e'tiqod O'rta Osiyoda Isus Xrist tarixidan so'ng yangi e'tiqod turi Islom dini Muhammad payg'ambar ostida boshlanadi. Arab podshohlari Xristian e'tiqodi kirib kelmasligi uchun Islom dinini butun Osiyoga yoyishadi. Xristian va Islom dini bir-biriga o'xshash har ikki din ham Hudo borligiga ishonishadi. Lekin Buyuk Britaniya ilmiy axborot jurnali „Sciense“ 2008-yilda Islom dini vakillari Xristian e'tiqodi odamlarini ko'p qoralashlarini yozib o'tilgan. Bu holat aynan Hudo o'g'li va hochga qoqilgan Isus Xrista bilan bog'liqligi gapirilgan. Unga ko'ra: Xristianlar Hudoga emas Isus Xristga sig'inishadi. Jon MakArtur shu savolga shunday javob bergan: Isus Xrist Hudoga ishonish nima ekanligini anglatib berdi va Isus Xrist insonlarning inson ekanligimizni ko'rsatuvchi yuzimizdur. Hudo bizga o'z elchilarini payg'ambarlarni yubordi, Hudo bizni shu payg'ambarlardek bo'lishimizni istaydi hayvonga o'xshab bir-birimizga raqib bo'lishimizni emas, deb javob beradi.

E'tiqod erkinligi butun jahon jamiyatida qonunan ximoya qilinadi, unga ko'ra: har qanday e'tiqod vakili jamiyatga zararsiz shaxs bo'lsa uning e'tiqodi jinoyat deb hisoblanmaydi.

Aqida arab tilidan olingan bo'lib e'tiqod, ishonch; tushuncha; din. E'tiqod qilinadigan narsa, xatti-harakat, u haqdagi gap; tushuncha va talablar. (Islom aqidasi e'tiqod qilishning talablari:

1. Allohga iymon keltirish;
2. Farishtalarga iymon keltirish;
3. Iloxiy kitoblarga iymon keltirish;
4. Payg'ambarlarga iymon keltirish;
5. Qiyomat kuniga iymon keltirish;
6. Al-Qadar (yaxshilik va yomonlik Allohdan ekanligi)ga iymon keltirish;
7. O'lgandan so'ng qayta tirilishga iymon keltirish;)

Iye barakalla Egamnazar hidoyatga boshlovchi aqidayi qasidalarni tinglab madaniy taomlardan iste'mol qildik Xudoyim sizga barokotlarni ato qilsin

- Assalomu Alaykum, Assalomu Alaykum dadajon men keldim
- Borakollo.....
- Hush ko'rdik Xoji aka, hush ko'rdik
- Mayli.
- Qani Xoji aka yuring
- Ha aytganday....
- Ha Xoji aka
- Hozir ishlayapsiz, dinimiz ravnaqi yo'lida qilayotgan harajotlar yana malol kelmasin²⁶

Yuqorida keltirilgan misolda **aqida** so'zi din konseptiga yondosh so'z bo'lib diniy ahkomlar ma'nosini beradi. *Aqidai qasidalarni tinglab* leksemalari orqali diniy so'zlarni buyruqlarni eshitib bilimlarimizni oshirdik deya ifodalanadi.

²⁶ <https://e-library.namdu.uz>

Abdug'ani muallim duoga qo'l ochib dedi

-Ey Poki Parvardigor adashgan bandalarini qizlarini barvaqt uzatayotgan tosh bag'irlarini konglini imon nuri bilan to'ldirgin, norasidalarimizni badbaxt bo'lishdan asragin, bekamu ko'st **aqidalarini** va bajarilajak amallarini buzayotgan dinimizga shak keltirayotganlarga insif bergin, ularni hidoyatga boshlagin omin Allohu akbar deya duo qildi²⁷.

Mazkur berilgan parchada xam aqida so'zi etiqod qilinadigan narsalar, hatti harakatlar ma'nolari orqali din konseptiga bog'liqligi ko'rsatiladi.

Zikrlarning ulug'i Laa Ilaha Illalloh

Oshiqqlarning huzuri Laa Ilaha Illalloh

Tasbeh aytar ko'klar xam Laa Ilaha Illalloh

Tasbeh aytar o'tlar xam Laa Ilaha Illalloh

Yerda mavjud kimsalar Laa Ilaha Illalloh

Hatto qurt, qumursqalar Laa Ilaha Illalloh

Ushbu qasidada keltirilgan leksemalar orqali Islom dinini qabul qilish uchun aytiladigan so'z *Laa Ilaha Illalloh* Allohdan o'zga Iloh yo'q ma'nosini anglatadi. Yani barcha narsalar yeru ko'k, mavjudotlar va o'simliklar xam insonlar kabi Allohga imon keltiradi e'tiqod qilinishi tushuniladi.

Domla Niyoz Anvar tarafidan duog'a qo'l ochti.

– Davlati shahanshoi ro'z-baro'z afzun, dushmanoni amir-al-**mo'minini** sarnigun boshad. **Ollohi** taolo soyayi zillallahiro, az sari raiyatoni kam nakunad...

Xudovando, bigardoniy baloro,

Zi ofatho, nigah doriy tu moro.

Ba haqqi har du giso'yi **Muhammad**,

Zabun gardon zabardastoni moro. \\\

Ey Xudo, Sen balolarni qaytarg'uchidirsan,

Ofatlardan bizni saqlag'uchidirsan.

Muhammadning ikki kokili hurmatiga,

Bizga g'olib kelguchilarni zabun qil

Duo asnosi ayniqsa birinchi xonadagi a'yonning yig'i va riqqat ohanglik «**omin, omin**» sadolari «huzuri muborak»ni titratdi. Duodan keyin hudaychi ikki to'n keltirib, kimxobni domla Niyozga va qora baxmaldan tikilgan mirzaboshiliq xil'atini Anvarga kiydirdi. Kimxobni kiyib olg'ach, mulla Niyoz «saxovatda Xotamitoydan, adolatda No'shiravoni odildan» ortig'roq ul janobning haqqig'a yana yangi duo va sanolar to'qudi, go'yo «amiral mo'minin»ni ko'mdi va o'zi ham qaynadi. Bundan so'ng marosim itmomiga yetib, Anvar sekin-sekin orqasi bilan yurib birinchi xonaga va undagi a'yonning tabriklariga ko'milib, dahlizga chiqdi.²⁸

Mehrobdan chayon asaridagi ushbu parchada **Domla** bu diniy ta'lim beruvchi ustoz sifatida qo'llanilmoqda **mo'min** so'zi orqali esa dinga e'tiqod qiluvchi, diniy amallarni to'liq bajaruvchi ma'nosini bildiradi. **Ollohi** yani Alloh diniy Iloh ma'nosida keltiriladi. **Xudovando**- ey Allohim, Ilohim so'zining shevadagi

²⁷ Hoshimov O'. Daftar xoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 240 b.

²⁸ Abdulla Qodiriy, Mehrobdan chayon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 328

sinonimi bo'lib, uning ekvivalenti sifatida Inshaaalloh(Alloh hohlasa) so'zidan foydalanish mumkin; *Xudoyo Xudovando yuzlaring yorug' bo'lsin bolam (Inshaaalloh yuzing yorug' bo'lsin bolam).*

Duo leksemasi Allohga iltijo qilish Undan niyyatlarini so'rash vositasi bo'lsa **omin, omin** ma'nosi duoga qo'shilish niyyatlarga qo'shilishni anglatadi.

Astag'firullo, – dedi imom, – siz o'sha kuni manim ustimga uch kunlik gap qildingizmi?

– *Shaytonning ishi-da, taqsir, – dedi Safar, – axir, yana manim aytkanim bo'ldi-ku, men bunga bir narsa deyapmanmi? Nedir, kinani qo'yayliq deyapman-da.*

Mulla Abdurahmon istig'for aytib yo'lg'a tushti. Safar bo'zchi ham muloyim'ina uning yonida qo'l qovushtirib jo'nadi.(Abdulla Qodiriy, Mehrobdan chayon, 110)

Astag'firullo-istig'for aytish –Allohdan qilgan gunohlari uchun kechirim so'rash demakdir. Shayton bu Alloh huzuridan quvilgan, la'natlangan farishta bo'lib, insonlarni noto'g'ri yollarga chorlovchi gunoh ishlarni qilishiga undovchi yovuz farishtadir. Imom- ilmi inson “namozda oldinda turuvchi”, g'oyaviy rahbar, musulmon(Islom diniga e'tiqod qiluvchi) jamoasi boshlig'i.

Ushbu keltirilgan misollarda din konsepti o'z ichiga oluvchi so'zlar orqali dinni e'tiqodni noanaviy tarzda ko'rsatilib ketilayotganini guvohi bo'lamiz.

Anvar maxdumdan qo'rqib turg'an bolalarning ahvolig'a qarab, kulimsidi:

– *Esi kirib qolar.*

– *Qiyomatdami? Bularning tatig'ini bermasam.... he, ko'zlaring qursin! Ra'no, sen akangga ko'rpacha solib, ukangni ol, onangg'a ayt, osh dam yegan bo'lsa, suzsini!*

Ra'no onasining bu so'zi bilan piq etib kuldi. Anvar yuzidagi kulgini yashirish uchun chetka qaradi.

– **Hadisning hukmi om, Nigor, – dedi maxdum. – Bundagi umur – umurid-dunyo, umurid-dunyo iborat az harakati ahli mo'min. Inchunin, bu hadisning amaliyoti oxirat uchun ham hukmi joriydir!**... Masalan, shab-u ro'z savm va salot mo'min kishini jisman notavon va nafaqayi ahli ayoldan ojiz qiladir. Bas, bu holda ibodatning kasrati, ya'ni toatda ifrot ham xayrul-umurga qo'shilmas, zero, farz va sunnat banda uchun kofiy erdi. Ma'noyi kofiy chist, ay avsat... Binobarin, bu hadis sharif ro'zg'orot borasida dastur tutilsa, yana ayni hikmat va savob. (Abdulla Qodiriy, Mehrobdan chayon:(b 178-180)

Yuqorida keltirilgan misollarda **qiyomat** so'zi diniy tushuncha bo'lib Alloh tomonidan vafot etgan insonlar qayta tirilguvchi kun, savol javob kuni yani bandalar o'z qilgan ishlari, hayoti dinidan so'roq qilinadigan kun hisoblanadi. Shu o'rinda Qur'oni karimda nozil qilingan Qiyomat (75-sura, 40 oyat)surasini keltirib o'tishimiz mumkin.

Ushbu maqolada din konseptining badiiy adabiyotlar tahlilida ko'rib chiqdik. Bunga diniy atamalar xalqning arosida muhim ro'l o'ynashini ko'rishimiz mumkin. Badiiy adabiyotlarda din konseptini ifodalovchi leksemalar bir biriga mos

kelishini va bazi holatlarda ularning ayni ekvivalentlarini emas ularga muqobil bo'lgan so'zlardan foydalanish joizligini bilib olishimiz mumkin.

Ushbu maqolada keltirilgan din konseptini ifodalovchi so'zlar orqali din konseptining foydalanilish jihatidan ko'rib chiqildi Assosan Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asarida qo'llanilgan so'zlar orqali din atamasining semantik maydonini ifodalovchi so'zlar tahlil qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1 Abdulla Qodiriy, Mehrobdan chayon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 328
- 2 Hoshimov O'. Daftar xoshiyasidagi bitiklar.– Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 240 b.
- 3 Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jayev H., Raximjonov D. va boshqalar. Dinshunoslik: darslik / m as'ul m uharrir N.Ibrohiniov. — Toshkent: M ehnat. 2004. — 294 b.
- 4 Городецкий Б.Ю. К проблеме семантической типологии. –Москва, 1969.
- 5 Звегинцев В.А. Теоретическая и прикладная лингвистика.– Москва,1968.
- 6 Кацнельсон С.Д. Содержание слова, значение и обозначение.–Москва, 1965.//Вопросы филологии, 2001,
- 7 Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и языке / Г.В. Колшанский. – М.: Наука, 1990. – 108 с.
- 8 Потебня А.А. Символ и миф в народной культуре / А.А. Потебня / Сост., подг. текстов А.А. Топоркова. –М.: Лабиринт, 2000. – 480 с.
- 9 Степанов Ю.С.Константы.Словарь русской культуры.–М,1997.
- 10 Юсупов У.К.Теоретический основы сопоставительной лингвистики.- Т.:Фан, 2007.
- 11 <http://e-library.namdu.uz>

LITOTA- STILISTIK VOSITA SIFATIDA

Djabbarova Z.R.

Ingliz tili nazariy aspektlari kafedراسi o'qituvchisi

Annotatsiya. Litotalar, uslubiy vosita sifatida, ma'lum bir fikrni ta'kidlash yoki ma'lum bir effekt yaratish uchun ataylab kamaytirilishdan foydalanishni o'z ichiga olgan nutq figurasidir. Bu tildagi istehzo va nozik nuanslar bilan o'ynaydigan ritorik texnika sifatida talqin etiladi. Ushbu maqola litotalar tushunchasini, uning funksiyalarini va tilning estetik va kommunikativ tomonlarini oshirishdagi rolini o'rganishga qaratilgan.

Tayanch iboralar: litota, ritorik vosita, kommunikativ xususiyat uslubiy vosita
Annotation. Litotes, as a stylistic device, are figures of speech that involve the deliberate use of understatement to emphasize a particular point or create a particular effect. It is interpreted as a rhetorical technique that plays with irony and subtle nuances in language. . This article aims to study the concept of litotes, its functions and its role in enhancing the aesthetic and communicative aspects of language.

Key words: litota, rhetorical tool, communicative feature, methodological tool

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

33.	Linguoculturemes in Modern English, Uzbek and Russian and problems of translation N.A.Otahnova	115
34.	TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI Davlatova Hulkaroy Uktamovna	117
35.	ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MULOQOT VA UNING NAZARIY ASOSLARI Maxmudova Sabinabonu Raxmatilla qizi	123
36.	INGLIZ VA O'ZBEK FRAZELOGIYASIDA GENDER STEREOTIPLAR DINAMIKASI Qoraqo'ziyeva Diyora Iqboliddin qizi	125
2-SHO'BA. UMUMIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI.		
37.	O'ZBEK TILI MILLIY-MADANIY SEMASIDA "SUV" LEKSEMASINING IFODALANISHI Hayitova Mahliyo Ilhom qizi	130
38.	TERMINOLOGIYANING RUS TILSHUNOSLIGIDAGI TADQIQI Karimov Kamoldin Nasriddinovich	132
39.	MADANIYATLARARO MULOQOTDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI Adaxamova Muqaddasxon Nuriddin qizi	136
40.	«BURCH» KONSEPTINING MA'NAVIY-AXLOQIY TABIATI Amanbaeva Dilsora Abbamuslimovna	138
41.	MULOQOTDA NOVERBAL VOSITALAR AHAMIYATI Mo'minova Matluba Akmalxon qizi	141
42.	ON THE USAGE OF NON-VERBAL MEANS IN COMMUNICATION Anvarbekova Oyidinoy Zafarbek qizi	143
43.	SOCIAL FACTORS IN LINGUISTIC CHANGE: INSIGHTS FROM LABOV'S PHONOLOGICAL STUDIES Mamadaliyeva Madinabonu Jaxongir qizi	148
44.	GENESIS OF TEXT AND SPEECH CONCEPTS. THEIR FORMAL AND INFORMAL STYLES AND DIFFERENCES BETWEEN THEM Ashurova Muxayyoxon Sanjarbek qizi	150
45.	TOPONIMLAR TARIXDAN SABOQ BERADI Asqarova Yorqinoy Mo'minjon qizi	154
46.	IJTIMOYIY-KASBIY NOMINATSIYA SEMANTIKASINING IJTIMOYIY ASOSLANGANLIGI Xamidov Behzod Axadovich	157
47.	BADIIY ADABIYOTLARDA DIN KONSEPTINING IFODALANILISHI Nafisaxon Maxamatqulova	159
48.	LITOTA- STILISTIK VOSITA SIFATIDA Djabbarova Z.R.	165
49.	ETYMOLOGY OF THE LEXEME "MOUTH" IN ENGLISH AND ITS MANIFESTATION AS CONCEPT IN THE LINGUISTIC PICTURE OF THE WORLD Otajonov Botirbek Ashuralievich	168
50.	FEATURES OF WRITTEN CORPORA EXPLOITED IN CREATING LANGUAGE TEACHING MATERIALS	172